

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-4/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№4/3 (125), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 265 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Abdullayeva D.A. Buxoro me'moriy merosining muhofazasiga mas'ul muassasa tarixi	6
Abdullayeva N.S. Rossiya Sharq muzeyidagi O'zbekiston badiiy metall buyumlari namunalari	9
Abduqodirov J. O'zbekistonda ziyorat: o'tmish va hozir	13
Abulqosimova D.A. 1991-2001 yillarda Samarqand davlat universiteti faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi	15
Asadov M.O'. Nogironlar milliy reabilitatsiyasi sohasidagi islohotlar	18
Asatullaev M.I. Public education in the Uzbek SSR for 20 years 1924-1944	24
Axmadova N.A. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan fan va ta'lim sohasidagi hamkorliklarining yangi bosqichga ko'tarilishi	27
Axmedov B.A. Yevropa mamlakatlarida qorako'lchilik sohasining taraqqiy etishi	29
Bakhramova L.I. Tarixiy va madaniy merosni aks ettiruvchi urbanonimlar	32
Bokiyev B.U., Omonov O.O. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining zabardast vakili	35
Burxanova S.T. O'zbekistonning eng yangi tarixiga oid mulohazalar	37
Choriyev B.G'. Mustaqillik yillarida Koson shahrini ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanishi	39
Ergashev K.B. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi madaniy-gumanitar hamkorligi: erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar	42
Erkinov A.M. Sovet davrida tarix ta'limining o'qitish metodlari va texnologiyalari	45
Eshmuhammedova L. Markaziy bankning respublika moliya tizimini rivojlantirishidagi ahamiyati	48
G'apparova B.R. Xorazm vohasida xalq o'yinlari va milliy bayramlarining rivojlanish bosqichlari	50
Hamidov A. Ijtimoiy mediaresurslar: kelib chiqish tarixi va rivojlanish tendensiyalari	55
Isoqjanov F.Q. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning boshlang'ich ta'lim sohasidagi ahamiyati	58
Jumaeva N.A. Quyi Zarafshon vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	60
Kenjayev N.J. Kattaqo'rg'on shahri madaniyati tarixi	64
Klichev O.A. Amir Abdulahadning "Safarnoma"lari sharhi	67
Marimov M.E. XX-asrning 20-30-yillarida Xorazm okrugida mahalliy matbuotning rivojlanishi	70
Matyakubova Sh.X. Quyi Amudaryo hududida ilk o'rta asr sug'orilish tarmoqlari tarixiga doir ba'zi mulohazalar	74
Mo'minov U., Ashirmurodov A. Buxoro amirligi ichki savdo munosabatlarida qashqadaryo vohasini tutgan o'rni	77
Nazirov B.S. Trends in the development of equestrian sports in the Surkhandarya oasis	79
Nurullayeva Sh.K. History of fabric manufacturing in Central Asia	82
Pirinkulova S.SH. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orti hududlariga ko'chirib keltirilgan o'smirlarni ish bilan ta'minlash muammolari	85
Poyonov B.R. Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining o'rnatilishi	88
Qodirova R.M. TASSRda sovet maktablarini tarix fani o'qituvchilari bilan ta'minlash muammosi va uni yechish yo'llari	91
Qulto'rayev I. XX asrning 50-60 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirish tadbirlari	96
Qurbanov S.V. "Xorazm" telekanali rivojlanish tendensiyalari: muammo va yechim	100
Rahimova S.A., Lafasov U.P. Boburiylar davridagi zargarlik buyumlarning dunyo xazinasidagi o'rni	104
Rahimova M.Sh., Xidirova Sh.Sh. Mintaqada urbanizatsiya darajasini tizimlashtirish	109
Raxmonov F.Sh. XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida yerga egalikning an'anaviy shakllari	113
Rustamova M.I. Gilamdo'zlik san'ati va Nurobod tumanida gilamdo'stlik san'atining o'ziga xos an'analar	117
Ruziboyev T.Z., Rasulov R.I. Mojrumsoy arxeologik yodgorligidagi petrogliflarni gis texnologiyasi asosida monitoring qilish	120

BUXORO ME'MORIY MEROSINING MUHOFAZASIGA MAS'UL MUASSASA TARIXI

D.A.Abdullayeva, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris)ning tuzilishi, uning Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi bilan bog'liq faoliyati yoritiladi. Qo'mitaning Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etgan xodimlari, ularga yuklatilgan vazifa hamda vakolatlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buxkomstaris, komissiya, muhandis, ta'mirlash, obida, Nodir Devonbegi madrasasi, texnik xodim, ishonchnoma, vakolatli vakil, mavsumiy xodim.

Аннотация. В данной статье освещена структура Бухарского комитета по делам музеев, памятников старины, искусства и охраны природы (Бухкомстарис), его деятельность, связанная с охраной архитектурных памятников Бухары. В статье рассматриваются вопросы касающиеся сотрудников комитета, участвовавшие в организации процессов ремонта и реставрации исторических памятников Бухары.

Ключевые слова: Бухкомстарис, комиссия, инженер, ремонт, памятник, медресе Надир Девонбеги, техник, доверенность, уполномоченный представитель, сезонный работник.

Abstract. This article highlights the structure of the Bukhara Committee for Museums, Antiquities, Art and Nature Conservation (Buxkomstaris), its activities related to the protection of architectural monuments of Bukhara. The article discusses issues related to the staff of the committee involved in the organization of the processes of repair and restoration of historical monuments of Bukhara.

Key words: Buxkomstaris, commission, engineer, repair, monument, Nodir Devon begi madrasah, technician, power of attorney, authorized representative, seasonal worker.

Kirish. Muзей ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) – Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash tarixida muhim ahamiyat kasb etgan muassasalardan biridir. Mazkur tashkilotning ta'sis etilishi uchun Buxoro hududidagi tarixiy yodgorliklarning ro'yxatga olinishi, ularning ahamiyati va saqlash mas'uliyati birlamchi asos sifatida xizmat qildi. Turkkomstaris topshirig'i asosida 1924-yilda I.I. Umnyakov tomonidan muhandis M.M. Loginov bilan birgalikda Buxoro va Karmana hududidagi amir saroylarining saqlanish holati o'rganiladi, ularning o'lchovlari olinib, fotofiksatsiya va ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi[1]. Tashrif natijasida yodgorliklar muhofazasi bo'yicha Buxoro komissiyasi (hay'ati) tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muзей ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi faoliyatini o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris – R-394-fondning 92, 93, 143, 188, 192, 261, 309–yig'majildlarida, Uzkomstaris-2296-fond 1, 9, 174, 46, 62-yig'majildlarida hamda Buxoro viloyat davlat arxividagi 629-fondning 1, 836-fondning 5, 9, 17-yig'majildlarida Buxkomstaris faoliyatiga doir hisobotlar, ish yuritish hujjatlari jamlangan. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Buxoro me'moriy merosining muhofazasiga mas'ul muassasa – Buxkomstaris tarixi bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Natija va muhokamalar. I.I. Umnyakovning mazkur komissiyani tashkil etish masalasidagi fikrlarini Turkkomstarisning 1924-yil 12-oktabrdagi yig'ilish bayonnomasidagi ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkoni mavjud. Muassasaning tashkil etilishi, xodimlar hamda tegishli mablag' manbalari bilan bog'liq masalalar tartibi unda o'z ifodasini topgan. M.Saidjonov bilan kelishilgan holda taklif etilgan tartib bandlariga muvofiq Komissiya BSSR (Buxoro sovet sotsialistik

respublikasi) Maorif nozirliги huzurida tashkil etilib, Turkkomstarisning hududiy vakilligi vazifasini bajarishi belgilangan. Shuningdek, unga a) Buxoro hududidagi tarixiy va san'at yodgorliklarini ro'yxatga olish; b) Buxkomstaris tasarrufiga kiritilgan tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash; c) tashkilot vazifalaridan kelib chiqib jamlangan barcha materiallarni tizimlashtirish va ilmiy tahlil qilish; d) muzey ishini boshqarish singari majburiyat va mas'uliyat topshiriladi[2].

Ayrim tuzatishlar natijasida Buxkomstaris faoliyati xususidagi nizom qabul qilingan bo'lsa-da, u o'z faoliyatini 1925-yilda "*Sredazkomstarisning Zarafshon komissiyasi*" nomi bilan boshlaydi. Bu milliy-hududiy chegaralanish siyosati sababli bosh qo'mitaning qayta tashkil etilishi bilan bog'liq edi. 1925-yil mart oyida qayta tuzilgan ushbu komissiya Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish, hisobga olish, saqlash va ta'mirlash uchun mas'ul etib belgilangan[3].

Tashkilot xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzilib, unda majburiyat va vakolatlar aniq belgilangan. Jumladan, komissiya raisi a) tarixiy yodgorliklarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar yoki ilmiy ahamiyat kasb etadigan topilmalar xususida xabardor bo'lish; b) qo'mita tasarrufiga yerlar bilan bog'liq tadbirlarga nazoratni yo'lga qo'yish; d) Buxoro hududidagi idora va tashkilotlarda tegishli tarixiy yodgorliklar va ularning ahamiyati xususida ma'ruzalar o'qish va ekskursiya tadbirlarini amalga oshirish; e) bosh qo'mitaga amalga oshirilgan ishlar xususida hisobot taqdim etish kabi vazifalarni bajargan.

Sredazkomstaris tayinlovi asosida Abdurauf Fitrat (1925-yil 1-mart – 1926- yil 26-iyungacha), Muso Saidjonov (1926-yil 26-iyun –1927-yil 22-noyabr), Halim Ashurov (1927-yil 22-noyabr–1928-yil 4-sentabr), Najab Qurbonov (1928-yil 4- sentabr) kabi mahalliy ziyolilarning Buxkomstaris raisi lavozimidagi faoliyati e'tiborga molik[4].

Zarafshon komissiyasining to'liq tarkibi 1925-yil 1-oktabrda quyidagicha shakllantiriladi: Rais sifatida Abdurauf Fitrat faoliyatini davom ettiradi, rais muovini etib V.K.Kostko (*Sredazkomstarisning tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'limi vakili — D.A.*) tayinlangan. Ilmiy kotib M.Y.Saidjonov[5], ilmiy xodim lavozimida Said Mahmud Mas'udxo'jayev ish boshlaydi. Shuningdek, hisobchi-ish boshqaruvchi, xo'jalik ishlari boshqaruvchisi, yordamchi, omborxon qorovuli, Ko'kaldosh madrasasi qorovuli, izvoshchi kabi jami o'n xodimdan iborat jamoa o'z faoliyatini boshlaydi[6].

Tahlillar, xodimlar tarkibining asosiy qismi mahalliy millat vakillaridan shakllantirilganligini ko'rsatdi. Bu tashkilot faoliyatining amalga oshirilishi uchun ijobiy hol edi. Yil oxiriga kelib Nodir Devonbegi madrasasi va Fathobod (Bayonqulixon va Sayfiddin Boxarziy maqbaralari)dagi yodgorliklar uchun qorovul tayinlanganligi hisobiga xodimlar soni ikkitaga ko'payganligini ko'ramiz. Yodgorliklar muhofazasida ushbu ish o'rning ahamiyatli ekanligi qo'mita faoliyati davomida o'z tasdig'ini topdi. Dastlab, binoning xavfsizligi va uning tozaligiga mas'ul bo'lgan qorovullar vazifasiga tashrif buyuruvchilarni ro'yxatga olish hamda obyekt to'g'risida birlamchi ma'lumotlar berish ham kiritiladi[7]. O'z navbatida qorovullar asosan ta'mirchi ustalar orasidan tayinlanganligi e'tiborga molik. Nodir Devonbegi madrasasi va Ismoil Somoniy maqbarasi qorovullari bo'lgan Qurbon Saidov, Sulaymon To'rayev kabi ta'mirchi-ustalarning faoliyati buning misolidir.

V.A.Shishkinning 1928-yil 4-apreldagi Sredazkomstaris yig'ilishida Buxkomstaris xususidagi ma'ruzasiga asoslanilsa, unda faoliyat yuritayotgan xodimlar to'g'risida: "...Rais H.Ashurov, ish boshqaruvchi, hisobchi O.Oqilov, xo'jalik ishlari boshlig'i I.Murodov, yana ikkita qorovul (*yodgorliklar bo'yicha va muzey qorovuli — D.A.*) jami 7 kishidan iborat.[8]" degan ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Tadqiq etilayotgan masalaga doir izlanish natijalari olimning ushbu fikrlarini to'ldirishga xizmat qildi. Ya'ni, joriy yilga tegishli hisobot hujjatlariga ko'ra, tashkilotda ilmiy kotib lavozimida B.N.Butkevich, tosh teruvchi usta Zayniddin hamda qorovul A.Adilovlar ham ish olib borganligi ma'lum bo'ldi[9].

Arxiv hujjatlari tadqiqi jarayonida Buxoro hududiga tayinlangan vakolatli vakilga Uzkomstaris tomonidan ishonchnoma hujjati taqdim etilganligi aniqlandi. Mazkur hujjat tashkilot vakilining faoliyat doirasini belgilab bergan. Unga muvofiq, vakolatli vakil Buxoro, Qorako'l, Romitan, Akmalobod (*hozirgi G'ijduvon tumani — D.A.*), Vobkent va Karmana tumanlarida joylashgan yodgorliklarni o'rganish, muhofaza etish va ta'mirlash ishlariga rahbarlik qilish, moddiy madaniyat

namunalarini ro'yxatga olish, yig'ish va ularga daxldor hujjatlarni saqlash, Uzkomstaris tartibiga asoslanib yodgorliklarni ijaraga berish, Buxkomstaris nomidan markaziy va mahalliy idoralar bilan tashkilot faoliyati doirasida munosabatga kirishish, moddiy madaniyat yodgorliklarini har tomonlama o'rganish, fotofiksatsiya, shurf qazish ishlari, chizma chizish rejalarini tuzish, Buxkomstaris xodimlarini ishga yollash va ularni ishdan bo'shatish, tashkilot nomidan turli idora va shaxslar bilan (*ta'mirlash jarayoni uchun zarur qurilish materiallarini sotib olish yoki Buxkomstarisga tegishli buyumlar likvidatsiyasi, ijaraga berish yuzasidan – D.A.*) shartnomalar imzolash, bank kreditlarini boshqarish, joriy hisob raqamlarini ochish va ularni yopish hamda bank cheklari, tashkilot buyruqlarini imzolash, moddiy madaniyat yodgorliklariga zarar yetkazilganda ma'muriy va sud tartibida javobgarlikka tortishni talab etish, tegishli sud idoralarida Buxkomstaris manfaatlarini himoya etish kabi vakolatlarga ega edi[10]. Tayinlangan doimiy vakil o'z faoliyatini Uzkomstarisning tegishli ko'rsatma va tartibiga hamda mahalliy hukumat idoralarning qarorlariga asoslanib olib borishi belgilangan. Bu lavozimga dastlab V.A. Shishkin tayinlanadi.

Yillar davomida qo'mita faoliyatining mohiyati va yo'nalishi o'zgarib borishi bilan xodimlar tarkibi ham bunga moslashtirib borilganligi kuzatiladi. 1934-1937-yillar kesimida Buxkomstarisda rais, arxitektor, bosh usta-restavrator, ish boshqaruvchi, hisobchi kabi shtat birliklari joriy etilgan[11].

1939-yilga kelib Buxkomstarisda rais (S.Zokirov), ilmiy xodim (S.K.Kabanov), texnik xodim, hisobchi, 10 qorovul jami 15 kishi faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, 12-30 kishilik mavsumiy ishchilar guruhi ham yollangan[12]. Mazkur davrda qo'mita *ilmiy xodimi* vakolatlari nisbatan keng qamrovli bo'lganligi ko'rinadi. Jumladan, u 1) qo'mita belgilagan mavzuli reja asosida biriktirilgan hududdagi moddiy madaniy yodgorliklarni o'rganish; 2) ta'mirlash va qayta tiklash ishlari yuzasidan ilmiy arxeologik nazoratni amalga oshiradi. Bu borada shaxsiy javobgarlikni o'z bo'yniga oladi; 3) tarixiy yodgorliklarga doir qo'lyozma hujjat va nashrlarni to'playdi. Ushbu turdagi hujjatlarni sotib olish bahosi hamda ilmiy qiymatiga javobgar hisoblanadi; 4) arxeologik topilmalarni ro'yxatga olish; 5) u yoki bu moddiy madaniyat yodgorligi yuzasidan paydo bo'lgan xavfni bartaraf etish maqsadida bu xususida qo'mitaga bildirish; 7) turistik ekskursiya, turli tashkilot vakillarining tashrifi davomida O'rta Osiyo tarixi bilan bog'liq masalalarda zarur maslahatlarni berish; 8) yodgorliklarda fotofiksatsiya va o'lchov ishlarini olib borish; 9) hududiy vakillik muassasalari va tashkilotlar bilan munosabatga kirishish kabi vazifalarni bajargan[13].

Texnik xodim ham ta'mirlash ishlari olib borilishining texnik nazoratini amalga oshirish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari uchun zarur smetalarni ishlab chiqish, ilmiy xodim topshirig'iga binoan o'lchov ishlari va chizmalarni tayyorlash, tegishli tartib asosida bajarilgan restavratsiya ishlari yuzasidan hisobot taqdim etish singari muhim ishlarga mas'ul edi.

Qo'mita *idora xizmatchisi* esa yodgorlik ijaradorlaridan ijara to'lovlarini yig'ish, tushumlarni ro'yxatga olish, madrasalarda istiqomat qiluvchi aholini ro'yxatga olish kitoblarini yuritish kabi vazifalarni bajargan[14].

Buxkomstarisda faoliyat olib borgan ta'mirchi ustalar esa tashkilot ro'yxatida mavsumiy xodimlar sifatida qayd qilingan. Jumladan, Majid Solihov – 1932-yildan e'tiboran tashkilot usta-restavratori sifatida ish boshlagan. Asosan tosh terish, gumbaz va peshtoq qismlarining ta'miri bilan shug'ullangan. Qurbon Saidov – ganchkor usta. Rasul Rahmatov – tosh teruvchi, suvoqchi sifatida 1936- yildan boshlab Buxkomstarisda ishlaydi. Sulaymon To'rayev – ganch tayyorlaydigan mutaxassis. Imomqul Qurbonov 1928-yildan boshlab qo'mitada ta'mirlash jarayoni bilan bog'liq turli ishlarni amalga oshiradi. Shuningdek, usta Abdusalom Abdurahmonov, Ibrohim Hafizov, usta Abdurahim Hayotov, usta Shirin Murodov, Qurbon Yo'ldoshev, Xolmat Sultonov, Narzulla Yodgorov va Aminjon Salomovlar Buxkomstarisda ta'mirlovchi-ustalar sifatida faoliyat yuritishgan[15].

Xulosa sifatida ta'kidlash o'rinliki, XX asrning 20-40-yillarida Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va restavratsiya jarayonlarini tashkil etish bevosita bir guruh xodimlar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan. Bular rais, rais muovini, ilmiy kotib, muhandis-arxitektor, mutaxassis-arxeolog, ilmiy xodim, ish boshqaruvchi — hisobchi, kotib, texnik xodim, hududiy vakil, xo'jalik ishlari boshqaruvchisi, yordamchi, idora xizmatchisi, xavfsizlik va tozalikka mas'ul

qorovullar, izvoshchi, shuningdek, ta'mirlovchi usta-restavradorlar kabi doimiy va mavsumiy shtat birliklaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy arxivining (keying o'rinlarda — O'zbekiston MA), R-394-fond, 1-ro'yxat, 143-yig'majild, 114-115-varaqlar.
2. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 92-yig'majild, 1-varaq.
3. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 188-yig'majild, 9-varaq.
4. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 23-varaq.
5. Muso Saidjonov Zerkomstaris ilmiy kotibi lavozimiga ancha oldinroq 1925-yil 7-mart sanasida tayinlanib, 1926-yil 26-iyunga qadar faoliyat yuritadi. *Qarang:* O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 192-yig'majild, 131-varaq.
6. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 22-varaq.
7. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 174-yig'majild, 104-varaq.
8. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 261-yig'majild, 118-119-varaqlar.
9. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 52-varaq.
10. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 144-yig'majild, 99-varaq.
11. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 144-yig'majild, 92-varaq.
12. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 245-yig'majild, 26-varaq.
13. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 174-yig'majild, 100-varaq.
14. Buxoro viloyat davlatlar arxivi (keyingi o'rinlarda – Buxoro VDA), 629-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 6-varaq.
15. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 91-yig'majild, 160-varaq.

UDK: 719:72(575.1)

ROSSIYA SHARQ MUZEYIDAGI O'ZBEKISTON BADIY METALL BUYUMLARI NAMUNALARI

N.S. Abdullayeva, PhD, Amerika texnologiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab muzeylari, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasining qator muzeylarida O'zbekiston moddiy madaniy merosi namunalari saqlanmoqda. Ularni o'rganish va tavsiflash hamda tadqiqot natijasida olingan materiallarni keng jamoatchilikka taqdim etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada Moskvadagi Sharq muzeyi kolleksiyalaridan munosib o'rin olgan mohir hunarmandlarimiz tomonidan XIX – XX asr boshlarida yasalgan badiiy metal buyumlarining tavsifi berilib, ularning badiiy, tarixiy-etnografik ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy metall buyumlar, kolleksiya, madaniy meros, misgar, Sharq muzeyi.

Аннотация. В настоящее время во многих музеях мира, в том числе в ряде музеев Российской Федерации, хранятся образцы материального культурного наследия Узбекистана. Их изучение и описание, а также представление широкой публике материалов, полученных в результате исследования, имеют актуальное значение. В статье описываются художественные металлические предметы, изготовленные нашими мастерами в XIX – начале XX веков из собраний Музея Востока в Москве, и даны размышления об их художественной и историко-этнографической значимости.

Ключевые слова: коллекция, культурное наследие, Музей Востока, художественные металлические изделия, чеканицик по металлу.

Abstract. Currently, many museums around the world, including a number of museums in the Russian Federation, store samples of the material cultural heritage of Uzbekistan. Their study and description, as well as the presentation of the materials obtained as a result of the study to the general public, are of current importance. The article describes artistic metal objects made by our craftsmen in the 19th – early 20th centuries from the collections of the Orient Museum in Moscow, and provides reflections on their artistic and historical-ethnographic significance.

Key words: artistic metal products, collection, cultural heritage, metal chaser, Orient Museum.

Kirish. Moskvadagi Sharq davlat muzeyi (Muзей Vostoka) Rossiyadagi ixtisoslashtirilgan muzey bo'lib, uning to'plamlarida bugungi kunda Osiyo va Afrikaning 100 dan ortiq mamlakati va xalqining san'ati hamda madaniyati yodgorliklari namoyish etilgan.